

Fan platformasi		
Fanning to'liq nomi: QURILISH SHISHA MATERIALLAR		
Fan kodi: QSHM4806	Fanga ajratilgan kreditlar (ECTS): 6	davomiyligi: 1 semestr
Kafedra: Silikat materiallar va nodir, kamyob metallar texnologiyasi		
Fan qaysi yo'nalish talabalari uchun: 60710100- Kimyoviy texnologiya(qurilish materiallar)		
Fan ma'ruza o'qituvchisi: Ruzibaev Baxrom Rustambaevich		
Fanga ajratilgan umumiy soatlar: 180	Email: ruzibaevbahrom7@gmail.com	
Fan seminar mashg'ulotlari o'qituvchisi(lari): Naimov Sh.		
Prerekvizitlar: Silikat materiallar texnologiyasi	va	tanlov fan
Tanlov turi:		
<p><b>Fanning qisqacha bayoni:</b> “Qurilish shisha materiallar” fani ixtisoslik fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 4-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Mazkur fan ixtisoslik fanlar turkumiga kiradi. Fanni puxta o'zlashtirish nazariy materiallarni bilish bilan birga, talabalarining pedagogik va ishlab chiqarish amaliyoti davrida va institutni bitirgandan keyingi ishlarda ko'nikma sifatida xizmat qiladi.</p>		

**Fanning maqsadi:** qurilish materiallar texnologiyasi asoslari, qurilish shisha materiallar tasniflanishi, qurilish shisha materiallar ishlab chiqarishdagi fizik-kimyoviy jarayonlar qurilish materiallar sintezi, xossalari va qo'llanilish imkoniyatlari bo'yicha nazariy va amaliy, profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdan iborat.

Fan yakunida talabalar quyidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishadi:

- qurilish shisha materiallar texnologiyasi asoslari;
- qurilish shisha materiallar tasniflanishi;
- qurilish shisha materiallar texnologiyasi bo'yicha xom-ashyo tozalash va qayta ishlash usullari;
- qurilish shisha materiallar ishlab chiqarishdagi fizik-kimyoviy jarayonlar;
- qurilish shisha materiallarning xossalari- mikrostrukturasi, g'ovakligi, mexanik mustaxkamligi;
- qurilish shisha materiallarning asosiy turlari;
- qurilish shisha materiallar sintezi, xossalari va qo'llanilish imkoniyatlari xaqida tasavvurga ega bo'lishi; ( bilim)
- qurilish shisha materiallari ishlab chiqarish texnologiyasini tanlash usullarini;
- qurilish shisha materiallari ishlab chiqarishda texnologiyalarni takomillashtirish usullarini;
- texnologik jarayonlarni xisoblashning asosiy usullarini;
- ekologik masalalarni yechish usullarini;
- texnologik ishlab chiqarishni rejalashtirish va tashkillashtirishni;
- texnologik jarayonlar o'tkazilishishi uchun optimal omillar tanlashni;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy tavsiflarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- ishlab chiqarishning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllantirish;
- joriy davr va istiqbol uchun mamlakatimizdagi xom ashyo bazasi holatini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak .

#### **Ma'ruza mashg'ulotlari**

Ma'ruza mashg'ulotlari katta sig'imli, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan o'quv auditoriyalarida olib boriladi.

#### **Amaliy mashg'ulotlar**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi, “Keys-stadi” texnologiyasi ishlatiladi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi. Shuningdek, mavzudan kelib chiqib dars mashg'uloti mehmonxonada sayyor dars tarzida olib boriladi.

#### **Mustaqil ta'lim**

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan taqdimotlar, guruh bilan ishlanmalar, referatlar tayyorlanadi.

<b>№</b>	<b>Fan mavzulari</b>	<b>Ma'ruza soatlar hajmi</b>	<b>Amaliy mashg'ulot soatlar hajmi</b>	<b>Mustaqil ta'lim soatlari</b>
1	Qurilish shishasi turlari.	2	6	14
2	Qurilish shishasi olishda ishlatiladigan xom ashyolar.	4	6	14
3	Qurilish shishasi olish usullari.	4	6	14
4	Qurilish shishasi olishda ishlatiladigan issiqlik qurilmalari.	4	6	14
5	Listli shisha ishlab chiqarish texnologiyasi.	2	6	14
6	Arxitektura-qurilish shishasi ishlab chiqarish texnologiyasi.	4	6	12
7	Issiqlik saqlovchi shisha tolasi ishlab chiqarish texnologiyasi.	2	6	14
8	Ko'pik shisha ishlab chiqarish texnologiyasi.	2	6	12
<b>Jami</b>		<b>24</b>	<b>48</b>	<b>108</b>

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ismatov A.A. Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. -584 b.

2. Yusupova M.N., Ismatov A.A. Keramika va olovbardosh materiallar texnologiyasi. Darslik. T.: “Fan va texnologiya”, 2011, 396 b.

3. Otaqo'ziyev T.A., Otaqo'ziyev E.T., Nabiyev A.A. Eng muhim qurilish materiali – portlandsement kimyoviy texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: Toshkent kimyo-texnologiya instituti, 2015.- 192 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Michael F. Ashby, D.R.H.Jones. Engineering Materials 2, An Introduction to Microstructures, Processing and Design. Third Edition. Elsevier, Butterworth-Heinemann, 2006. ISBN–13: 978-0-7506-6381-6. 466 r.

5. T.A. Otaqo'ziyev, E.T. Otaqo'ziyev, I.N. Maxmayorov. Bog'lovchi moddalar kimyoviy texnologiyasiga oid laboratoriya ishlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, Nico Poligraf, 2011.- 192 bet

6. Otaquziev T.A., Otaquziev E.T. Bog'lovchi moddalar kimyoviy texnologiyasi. Darslik. Toshkent: Cho'lpon nim. nashriyot-matbuot ijodiy uyi, 2005.- 256 b.

#### **Axborot manbaalari**

7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

8. [www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz).

9. [www.ref.uz](http://www.ref.uz).

10. [www.omgtu.ru](http://www.omgtu.ru).

11. [www.dpo-msu.ru](http://www.dpo-msu.ru).

**Kontakt soatlari\*:** mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

<b>N</b>	<b>Kun</b>	<b>Vaqt</b>	<b>Xona</b>
1	Chorshanba	10.00 – 12.00	320

2	Shanba	10.00 – 12.00	320
---	--------	---------------	-----